FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11(1)-son

UDK: 159.9:331.54

Yuldasheva Nafisa Kabilovna,
Andijon davlat universiteti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi dotsenti v.b.

O‘QUVCHILARNING KASBIY MOYILLIKLARINI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini aniqlash va rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, kasbiy shakllanish jarayoniga ta’sir etuvchi individual va ijtimoiy-psixologik omillar hamda kasbiy yo‘naltirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. O‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, motivatsiyasi va individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganishning kasbiy o‘zini o‘zi anglashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot doirasida L. Yo‘yashi metodikasi va G. Rezyaapkin modifikatsiyasi asosidagi “Kasbiy moyilliklar so‘rovnomasi” yordamida 498 nafar o‘quvchining kasbiy moyilliklari o‘rganilgan. Olingan natijalar insonlar bilan ishlash, tadqiqotchilik, amaliy, estetik, ekstremal hamda rejaviy-iqtisodiy faoliyat yo‘nalishlariga nisbatan moyilliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. Tadqiqot natijalari asosida o‘quvchilarni kasbiy yo‘naltirishda psixologik diagnostika, individual yondashuv va pedagogik hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy moyillik, kasbiy yo‘naltirish, kasbiy o‘zini o‘zi anglash, kasbiy shakllanish, kasbiy qiziqish, qobiliyat, motivatsiya, individual-psixologik xususiyatlar, psixologik diagnostika, o‘quvchi shaxsi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЫЯВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СКЛОННОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье анализируются психологические особенности выявления и развития профессиональных склонностей учащихся, индивидуальные и социально-психологические факторы, влияющие на процесс профессионального становления, а также теоретические основы профессиональной ориентации. Раскрывается значение изучения профессиональных интересов, способностей, потребностей, мотивации и индивидуально-психологических особенностей учащихся в процессе профессионального самоопределения. В рамках исследования с использованием методики Л. Йовайши в модификации Г. Резапкиной изучены профессиональные склонности 498 учащихся. Полученные результаты позволили выявить особенности склонностей к работе с людьми, исследовательской, практической, эстетической, экстремальной и планово-экономической деятельности. На основе результатов исследования обоснована значимость психологической диагностики, индивидуального подхода и педагогического взаимодействия в процессе профессиональной ориентации учащихся.

Ключевые слова: профессиональная склонность, профессиональная ориентация, профессиональное самоопределение, профессиональное становление, профессиональный интерес, способности, мотивация, индивидуально-психологические особенности, психологическая диагностика, личность учащегося.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF IDENTIFYING AND DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL APTITUDES

Abstract. This article examines the psychological characteristics of identifying and developing students' professional aptitudes, individual and socio-psychological factors influencing professional development, and the theoretical foundations of career guidance. Particular attention is paid to the importance of studying students' professional interests, abilities, needs, motivation, and individual psychological characteristics in the process of professional self-determination. Within the framework of the study, the professional aptitudes of 498 students were examined using the L. Yovayshi methodology as modified by G. Rezyapkina. The findings reveal the specific characteristics of students' inclinations towards working with people, research, practical, aesthetic, extreme, and planning-economic activities. Based on the results, the importance of psychological assessment, an individualized approach, and pedagogical cooperation in the career guidance process is substantiated.

Keywords: professional aptitude, career guidance, professional self-determination, professional development, professional interests, abilities, motivation, individual psychological characteristics, psychological assessment, student personality.

KIRISH

Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar sharoitida yosh avlodni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning qiziqish va qobiliyatlariga mos kasb tanlashiga ko‘maklashish dolzarb ijtimoiy-psixologik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki kasb tanlash inson hayotidagi muhim qarorlardan biri bo‘lib, uning kelajakdagi ijtimoiy mavqeyi, moddiy farovonligi, shaxsiy qoniqishi va jamiyatdagi faolligini belgilovchi omillardan sanaladi. Shu sababli o‘quvchilarda kasbiy o‘zini o‘zi anglashni shakllantirish, ularning individual imkoniyatlarini aniqlash va kasbiy moyilliklarini rivojlantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kasbiy moyillik shaxsning muayyan faoliyat turiga nisbatan barqaror qiziqishi, ichki ehtiyoji, faoliyatni bajarishga intilishi va shu yo‘nalishda o‘z imkoniyatlarini namoyon etishga tayyorligini ifodalovchi murakkab psixologik xususiyatdir. U kasbiy qiziqish, motivatsiya, qobiliyat, ehtiyoj, qadriyatlar hamda individual-psixologik xususiyatlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Kasbiy moyillikning rivojlanishi faqat muayyan kasbga qiziqish bilan cheklanmaydi, balki shaxsning o‘z imkoniyatlarini anglash, kasbiy faoliyat mazmunini tushunish va kelajakdagi hayotiy maqsadlarini belgilash jarayonini ham qamrab oladi.

O‘quvchilik davri kasbiy o‘zini o‘zi anglashning muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda yoshlarning kelajakdagi faoliyatga doir tasavvurlari kengayadi, turli kasblarga qiziqishi ortadi, o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini baholashga intilishi kuchayadi. Biroq kasb tanlash jarayonida ayrim o‘quvchilar o‘zlarining haqiqiy qiziqishlari va qobiliyatlarini yetarlicha anglamasliklari, ota-onalar yoki

ijtimoiy muhit ta’sirida qaror qabul qilishlari mumkin. Natijada tanlangan kasb bilan shaxsiy moyillik o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Shu jihatdan o‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini o‘z vaqtida aniqlash, ularning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish va kasbiy yo‘naltirish ishlarini ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini psixologik jihatdan o‘rganish, turli kasbiy faoliyat yo‘nalishlariga nisbatan qiziqish darajasini aniqlash hamda kasbiy yo‘naltirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Kasbiy moyillik va kasbiy o‘zini o‘zi anglash muammosi psixologiya hamda pedagogika fanlarida uzoq yillardan buyon o‘rganib kelinayotgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Mazkur masalaning nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida turli yondashuvlar asosida yoritilgan. Jumladan, E. A. Klimovning kasbiy o‘zini o‘zi anglashga oid ilmiy qarashlarida shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini kasbiy faoliyat talablari bilan muvofiqlashtirish zarurligi ta’kidlanadi. Olimning fikricha, kasb tanlash jarayonida insonning o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi va tanlangan faoliyat mazmunini anglab yetishi kasbiy muvaffaqiyatning muhim shartlaridan biridir [1].

S. N. Chistyakova va N. N. Zaxarovning kasbiy yo‘naltirishga oid qarashlarida o‘quvchilarning kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar tashqi va ichki xususiyatlarga ko‘ra tahlil qilinadi. Tashqi omillar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, hududiy mehnat bozori, oilaviy muhit, ta’lim muassasasi va kasblarning ijtimoiy nufuzi bilan bog‘liq. Ichki omillar esa o‘quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, temperamenti, xarakteri va motivatsion xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur yondashuv kasbiy moyillikni shakllantirishda shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ahamiyatini ko‘rsatadi [2].

Mahalliy psixolog olimlardan E. G‘. G‘oziyev, B. R. Qodirov, V. M. Karimova, Sh. R. Baratov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsion sohasi va kasbiy shakllanish masalalari yoritilgan. Xususan, E. G‘. G‘oziyevning umumiy psixologiyaga oid qarashlari shaxs faoliyatining motivatsion asoslarini, qiziqish va ehtiyojlarning xulq-atvor hamda faoliyatga ta’sirini tushunishda muhim nazariy manba hisoblanadi [3].

P. T. Magzumov o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirishda oila, maktab, o‘qituvchilar, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari va badiiy adabiyotlarning ta’siriga alohida e’tibor qaratgan. Ye. M. Pavlyutenkov esa kasbiy tanlovda motivatsiya, hayotiy qadriyatlar va tanlanayotgan kasbning mazmunini anglash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan.

Kasbiy moyillikni o‘rganishda psixologik diagnostika metodikalari ham alohida o‘rin tutadi. L. Yo‘yashi tomonidan ishlab chiqilgan va G. Rezyaapkina tomonidan modifikatsiya qilingan kasbiy moyilliklarni aniqlash metodikasi shaxsning turli faoliyat yo‘nalishlariga nisbatan qiziqish va moyilliklarini baholash imkonini beradi. Ushbu metodika o‘quvchilarning insonlar bilan ishlash, tadqiqotchilik, amaliy, estetik, ekstremal hamda rejaviy-iqtisodiy faoliyatga moyilligini aniqlashda qo‘llanilishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy moyillikni faqat qiziqish yoki qobiliyat bilan chegaralab bo‘lmaydi. U shaxsning ichki motivlari, hayotiy maqsadlari, ijtimoiy tajribasi va individual imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ko‘p komponentli psixologik hodisadir. Shu sababli o‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini o‘rganishda kompleks yondashuvdan foydalanish, psixologik diagnostika natijalarini ularning kundalik faoliyati va individual xususiyatlari bilan qiyosiy tahlil qilish zarur.

METODOLOGIYA

Tadqiqot o‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini aniqlash va ularning turli kasbiy faoliyat yo‘nalishlariga nisbatan qiziqish darajasini psixologik jihatdan baholashga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, kasbiy o‘zini o‘zi anglash, faoliyat va motivatsiya nazariyalariga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqotda psixologik-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, umumlashtirish, psixologik diagnostika, miqdoriy ko‘rsatkichlarni statistik qayta ishlash va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Empirik tadqiqotda L. Yo‘yashi metodikasi va G. Rezyaapkin modifikatsiyasi asosidagi “Kasbiy moyilliklar so‘rovnomasi” qo‘llanildi. Ushbu metodika o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari va moyilliklarini olti asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda jami 498 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning 254 nafari erkak, 244 nafari ayol respondentlardan iborat bo‘ldi. Metodika natijalari asosida insonlar bilan ishlashga, tadqiqotchilik kasblariga, amaliy faoliyatga, estetik kasblarga, ekstremal faoliyatga hamda rejaviy-iqtisodiy faoliyatga moyillik ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

Olingan ma’lumotlar asosida har bir yo‘nalish bo‘yicha respondentlarning minimal va maksimal natijalari, o‘rtacha arifmetik qiymati, standart og‘ishi, asimmetriya va ekstsess ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Statistik ko‘rsatkichlar o‘quvchilarning kasbiy moyilliklari umumiy holatini tavsiflash, yo‘nalishlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash va natijalarning tarqalish xususiyatlarini baholashga xizmat qildi.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan psixologik diagnostika natijalari o‘quvchilarning turli kasbiy faoliyat yo‘nalishlariga nisbatan moyilliklari muayyan

farqlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, insonlar bilan ishlashga moyillik shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 7,41 ballni tashkil etdi. Ushbu natija o‘rganilgan yo‘nalishlar orasida eng yuqori ko‘rsatkich bo‘lib, respondentlarda muloqotga kirishish, insonlar bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy munosabatlarga asoslangan faoliyat turlariga nisbatan qiziqish mavjudligini ko‘rsatadi.

Rejaviy-iqtisodiy faoliyatga moyillik bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 7,33 ballni tashkil etdi. Bu natija o‘quvchilarning rejalashtirish, tashkil etish, iqtisodiy jarayonlarni tushunish, ma’lumotlar bilan ishlash va faoliyatni tartibga solishga qiziqishlari mavjudligini anglatadi. Mazkur yo‘nalishga moyillikning nisbatan yuqori ekanligi iqtisodiyot, menejment, moliya va boshqaruv kabi kasbiy sohalarga qiziqish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotchilik kasblariga moyillik ko‘rsatkichi 7,26 ballni tashkil etgan. Ushbu natija respondentlarda bilim olish, kuzatish, tahlil qilish, muammolarning sabablarini aniqlash va yangi ma’lumotlarni o‘rganishga qiziqish mavjudligini ko‘rsatadi. Bu kabi moyilliklar ilmiy faoliyat, tahliliy ishlar, muhandislik va axborot texnologiyalari kabi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topishi mumkin.

Ekstremal faoliyatga moyillik bo‘yicha o‘rtacha natija 7,25 ballni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich ayrim o‘quvchilarda tezkor qaror qabul qilish, mas’uliyatli vaziyatlarda faol harakat qilish va murakkab sharoitlarda o‘zini namoyon etishga nisbatan qiziqish mavjudligini anglatadi. Biroq ushbu natijani bevosita tavakkalchilikka moyillik sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas, chunki kasbiy moyillikni aniqlashda shaxsning boshqa individual xususiyatlari ham hisobga olinishi lozim.

Amaliy faoliyatga moyillik ko‘rsatkichi 7,07 ballni tashkil etdi. Bu o‘quvchilarning amaliy vazifalarni bajarish, muayyan natijaga yo‘naltirilgan faoliyat bilan shug‘ullanish va real hayotiy muammolarga yechim topishga qiziqishini aks ettiradi. Estetik kasblarga moyillik esa 6,92 ball bilan boshqa yo‘nalishlarga nisbatan eng past o‘rtacha ko‘rsatkichni namoyon etdi. Shunga qaramay, bu holat o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat yoki estetik ehtiyojlar mavjud emasligini anglatmaydi. Mazkur yo‘nalishdagi moyilliklarni yanada chuqurroq o‘rganish uchun individual diagnostika va ijodiy faoliyat natijalarini ham hisobga olish zarur.

Umuman olganda, empirik natijalar o‘quvchilarda insonlar bilan ishlash, rejaviy-iqtisodiy va tadqiqotchilik faoliyatlariga nisbatan moyilliklar nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa kasbiy yo‘naltirish jarayonida o‘quvchilarning mavjud qiziqishlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish, ularni turli kasbiy faoliyat namunalari bilan tanishtirish hamda kasbiy tanlovga tayyorlash zarurligini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarini psixologik jihatdan tahlil qilish o‘quvchilarning kasbiy moyilliklari ularning individual xususiyatlari va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, insonlar bilan ishlashga moyillikning nisbatan yuqori ekanligi o‘quvchilarning ijtimoiy muloqot, hamkorlik, o‘zaro tushunish va

jamoaviy faoliyatga qiziqishlari bilan izohlanishi mumkin. Bunday xususiyatlar pedagogika, psixologiya, tibbiyot, xizmat ko‘rsatish va boshqa insonlar bilan bevosita muloqotni talab qiluvchi kasblar uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, mazkur natijani o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya yoki empatiya to‘liq shakllanganligining bevosita isboti sifatida qabul qilish mumkin emas. Chunki kasbiy moyillik va amaliy qobiliyat o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, mazmunan farqli psixologik xususiyatlardir. Shu sababli kasbiy qiziqishlarni aniqlash bilan bir qatorda muloqot ko‘nikmalari, ijtimoiy faollik, hissiy barqarorlik va shaxslararo munosabatlarni tashkil etish xususiyatlarini ham baholash maqsadga muvofiqdir.

Rejaviy-iqtisodiy faoliyatga moyillikning yuqori ko‘rsatkichi o‘quvchilarning tartib, rejalashtirish, tashkilotchilik va natijaga yo‘naltirilgan faoliyatga qiziqishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday moyillikka ega o‘quvchilar kelgusida iqtisodiyot, menejment, moliya, tadbirkorlik va boshqaruv yo‘nalishlarida o‘z imkoniyatlarini namoyon etishlari mumkin. Biroq kasb tanlashda faqat mazkur ko‘rsatkichga tayanish emas, balki tegishli sohalar bo‘yicha bilim, qobiliyat va shaxsiy motivatsiyani ham hisobga olish lozim.

Tadqiqotchilik faoliyatiga moyillikning yuqori darajada namoyon bo‘lishi o‘quvchilarda bilishga intilish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal etishga qiziqish mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu xususiyatlarni rivojlantirishda ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish, mustaqil izlanish, loyiha ishlari va ilmiy-amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy moyilliklarning shakllanishida oilaviy muhit ham alohida o‘rin tutadi. Ota-onalarning kasbiy faoliyati, farzandlar bilan kasb tanlash yuzasidan olib boradigan suhbatlari, oiladagi qadriyatlar va mavjud ijtimoiy munosabatlar o‘quvchining kasbiy tasavvurlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kasb tanlashda ota-onalarning shaxsiy istaklarini farzandning individual imkoniyatlaridan ustun qo‘yish ayrim hollarda kasbiy tanlovda ichki ziddiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglar o‘quvchining mustaqil kasbiy qaror qabul qilishini qo‘llab-quvvatlashlari zarur.

Tadqiqot natijalari kasbiy yo‘naltirish jarayonida psixologik diagnostika vositalaridan tizimli foydalanish zarurligini ham ko‘rsatadi. Bunda diagnostika natijalarini o‘quvchining kasbiy tanlovi bo‘yicha yakuniy hukm sifatida emas, balki uning qiziqishlari va imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo‘llash lozim. Chunki kasbiy moyilliklar yosh davriga, ta’limiy tajribaga, ijtimoiy muhitga va shaxsiy rivojlanish jarayoniga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin.

Shu jihatdan o‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini rivojlantirishda psixolog, pedagog, ota-ona va kasb egalari hamkorligini ta’minlash, kasblar olami bilan amaliy tanishtirish, kasbiy sinovlar va individual maslahatlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

O‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini o‘rganish va rivojlantirish shaxsning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta’minlovchi muhim psixologik-pedagogik jarayon hisoblanadi. Kasbiy moyilliklar o‘quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va individual-psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli kasbiy yo‘naltirish ishlarini tashkil etishda mazkur omillarning o‘zaro uyg‘unligini hisobga olish talab etiladi.

Tadqiqotda 498 nafar o‘quvchining kasbiy moyilliklari L. Yo‘yashi metodikasi va G. Rezyaapkin modifikatsiyasi asosida o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, insonlar bilan ishlashga moyillik 7,41 ball, rejaviy-iqtisodiy faoliyatga moyillik 7,33 ball va tadqiqotchilik kasblariga moyillik 7,26 ball bilan nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarni tashkil etdi. Mazkur natijalar respondentlarning ijtimoiy muloqot, tashkilotchilik, rejalashtirish va bilishga yo‘naltirilgan faoliyat turlariga qiziqishlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, o‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini erta aniqlash ularning kasbiy o‘zini o‘zi anglash jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi; ikkinchidan, kasbiy yo‘naltirishda faqat qiziqishlarni emas, balki qobiliyat, motivatsiya, individual-psixologik xususiyatlar va ijtimoiy sharoitlarni ham hisobga olish zarur; uchinchidan, psixologik diagnostika natijalaridan individual kasbiy maslahat va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, o‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini rivojlantirishda ta’lim muassasalarida kasbiy yo‘naltirish mashg‘ulotlarini muntazam tashkil etish, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar o‘tkazish, kasbiy faoliyatga oid amaliy mashg‘ulotlar va kasbiy sinovlarni yo‘lga qo‘yish muhimdir. Psixologlar tomonidan o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini aniqlash, kasbiy tanlov bilan bog‘liq ikkilanishlarni bartaraf etish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maslahat ishlari olib borilishi lozim.

Umuman olganda, o‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini ilmiy asosda o‘rganish va rivojlantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatga ongli tayyorgarligini ta’minlash, shaxsiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish hamda jamiyat ehtiyojlariga mos yetuk mutaxassislar shakllanishi uchun muhim psixologik shartlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Климов Е. А. Психология профессионального самоопределения. – Москва: Академия, 2004. – 304 с.

2. Чистякова С. Н., Захаров Н. Н. Профессиональная ориентация школьников: вопросы содержания и организации. – Москва: Педагогика, 1987.

3. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 544 b.

4. Karimova V. M. Psixologiya. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 205 b.

5. Qodirov B. R. Kasb psixologiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2008. – 256 b.

6. Baratov Sh. R. Shaxs psixologiyasi va kasbiy shakllanish. – Toshkent: Fan, 2015. – 280 b.
7. Seteshev A. P. Профессиональная ориентация молодежи. – Москва: Просвещение, 1996. – 192 с.
8. Магзумов П. Т. Профессиональная ориентация учащихся. – Ташкент: Ўқитувчи, 1989.